

PLAGIAT.UZ

PLAGIATGA QARSHI TIZIM



<https://plagiat.uz>

Y O' R I Q N O M A S I

Plagiat.uz platformasi, plagiatga qarshi mahalliy tizim. Plagiat.uz tizimidan foydalanib, elektron (pdf, doc, docx, txt va boshqa turdag) kengaytmali hujjatlar onlaynda tekshiriladi. Plagiatga tekshirishda, ushbu tizim hujjatlarning barcha ko'rinishdagi matnlarini tahlil qilish, ularning muqobillarini topish imkoniyatiga ega. Tizim, xalqaro va mahalliy ma'lumotlar bazalaridagi mayjud ma'lumotlar bilan, tekshirilayotgan hujjat matnnini solishtiradi. Ko'chirmachilik yo'li bilan o'zlashtirilgan matn va ma'lumotlarni aniqlaydi. To'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish, parafrazlash, moslashtirish, strukturasini o'zgartirish orqali o'zlashtirilgan yoki sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida (generatsiya) qilib, yozilgan matnlarni aniqlaydi. Plagiat.uz tizimi tekshiruv natijalari bo'yicha hisobot, xulosa va sertifikat taqdim qiladi.

Plagiat.uz

Matnlardagi plagiatni aniqlash uchun ishlab chiqilgan mukammal, foydalanish uchun sodda va qulay tizim! *Plagiat tushunchasi*, bu boshqa mualliflar tomonidan ijod qilingan matnlar, ma'lumotlar, ilmiy yangiliklar, g'oyalar va barcha turdag'i yozma manbaalarni, ularning roziligesiz yoki foydalanilgan manbani (iqtiboslik) keltirmasdan o'zlashtirib olinishidir. Bunda muallif o'zgalarning asarini o'zining ijodi sifatida ko'rsatishi (**ko'chirmachilik**) yoki undan foydalanishi, **akademik halollik** va ilmiy-etika **qoidalarga zid hisoblanadi**.

Plagiat.uz tizimi O'zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” va “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”gi qonun talablariga javob beradi va 2024 yil 24 oktabrda 03-18-01/3218-son “Cyber Security Center” tomonidan ekspertizadan o'tkazilgan. Tizim serveri O'zbekiston hududida joylashgan bo'lib, tekshiruvlar jarayonida tizimga yuklangan barcha hujjatlar, ma'lumotlar sir saqlanishi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligining akademik halollik to‘g‘risidagi 2024-yil “14” oktabr 381-son buyrug‘ining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” va “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”gi qonun talablariga javob beradi.

Plagiat turlari:

To 'liq o 'zlashtirish: Boshqa bir muallifning ma'lumotlarini to‘liq nusxalash.

Qisman o 'zlashtirish: Ma'lumotni ayrim qismlarini o'zgartirib yoki tarjima qilib, o'z ijodi sifatida ko'rsatish.

Iqtibos manbasini ko 'rsatmaslik: Foydalanilgan ma'lumotlarning manbasini ko'rsatmasdan (citation - iqtibos)lik keltirmasdan o'zlashtirish.

Sun 'iy intellekt: (AI) texnologiyalaridan foydalanib yozilgan matnlar.

1. <https://plagiat.uz/> internet manzili orqali tizimga kiriladi.

PLAGIAT.UZ
PLAGIATGA QARSHI TIZIM

Plagiatga tekshirish va sun'iy intellekt yordamida yozilgan matnlarni aniqlash

Matnlardagi plagiatni aniqlash uchun eng kuchli tizim

Sun'iy intellekt tufayli yanada qulay, tezroq va aniqroq

Tizimga kirish ➔ Ro'yhatdan o'tish ➔

Taklif yoki savol bor!

1-rasm. Plagiat.uz tizimining bosh sahifasi

PLAGIAT.UZ
PLAGIATGA QARSHI TIZIM

Tizimga kirish

Email yoki Telefon raqam

Parol

Parolni unutdim

I'm not a robot

reCAPTCHA
Privacy - Terms

Kirish

Ro'yxatdan o'tmaganmisiz? [Tizimdan ro'yxatdan o'tish](#)

YOKI QUYIDAGILAR ORQALI KIRING

[Telegram](#) [Google](#) [Yandex](#)

2-rasm. Plagiat.uz tizimida ro'yxatdan o'tish va tizimga kirish

Telegram orqali kirish: mobil aloqa raqamingizni kriting va “keyingi” tugmasini bosing. Telegram profilingizga bot orqali “Tasdiqlash” yoki “Bekor qilish” tugmalari aks etgan xabari keladi. “Tasdiqlash” tugmasi bosilganda, aynan shu telefon raqam telegrami bilan sizning profilingiz ochiladi. “Bekor qilish” tugmasi bosilganda profilga kirish bekor qilinadi.



Telegram hisobingizni [plagiat.uz](#) va [Plagiat.uz](#) bilan foydalanish uchun bosing.

Telefon raqamingizni [xalqaro formatda](#) kriting va biz Telegram orqali hisobingizga tasdiqlash xabarini yuboramiz.

O'zbekiston

+998

[BEKOR QILISH](#)

[KEYINGISI](#)

3-rasm. Tizimga kirish



Google




Yandex



Войдите в аккаунт Google

Выберите аккаунт

для перехода в приложение "plagiat.uz"



4-rasm. Mavjud google yoki yandex pochtalar orqali tizimga kirish

Plagiat.uz tizimi o‘zbek, ingliz, qoraqalpoq va rus tillari (5-rasm)da ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu tillarda yo‘riqnomalariga ega.



5-rasm. Tizim tillari


Yuqorida keltirilganidek, plagiat.uz tizimiga turli usullardan foydalanib kirish mumkin. Buning uchun foydalanuvchilar o‘zining oldindan mavjud bo‘lgan e-mail pochta manzillari orqali yoki telegram akkaunti orqali ham kirishlari mumkin.

“Tizimga kirish” tugmasi bosilganda sayt yangi sahifaga o‘tadi (3-rasm). Bu web sahifaning pastki qismida “Telegram” logotipi joylashgan (6-rasm). “Telegram” tugmasi ustiga sichqoncha bilan bir marta bosiladi.




6-rasm. Telegram logotipi

Telegram logotipi orqali oddiy foydalanuvchi sifatida (shaxsiy) akkauntga kirish mumkin. Davlat nomi, mobil aloqa raqami kiritiladi va “Keyingi” tugmasi bosiladi (7-rasm).



7-rasm.



8-rasm. Tasdiqlash


Sizning mobil aloqa vositangiz (telefon) raqamingizga ochilgan telegramga 8-rasmda ko‘rsatilgan ko‘rinishda xabar keladi. Ushbu xabarning eng pastki qismida

“Tasdiqlash” tugmasi ustiga bosasiz. Plagiat.uz saytida, 9-rasmida ko‘rsatilgan sahifa ochiladi. “Qabul qilish” tugmasini bosib, plagiarism.uz sahifasida shaxsiy akkauntga ulanasiz.



9-rasm.


Plagiat.uz sahifasida shaxsiy akkauntga kirilganda, sizga ID raqam beriladi. ID raqamingiz shaxsiy kabinetning yuqorisida joylashadi (10-rasm). Agarda, siz gmail pochta manziliz orqali tizimga kirsangiz, tizim sizni yangi ID raqami bilan ro‘yxatga oladi. Siz Yandex pochta manziliz orqali tizimga kirsangiz, tizim sizni yana boshqa bir yangi ID raqami bilan ro‘yxatga oladi. Shu sababli tizimga kirishda, o‘zingizga qulay bo‘lgan usulni tanlashingiz va undan muntazam foydalanishingiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.



10-rasm. Bosh menu va ID raqam

Yuqorida keltirilgan plagiarism.uz tizimiga kirish oddiy foydalanuvchilar uchundir. Jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy usulda tizimga kirish, ko‘p marta ro‘yxatdan o‘tishda hech qanday cheklovlar yo‘q. Jismoniy shaxslar oddiy foydalanuvchilar sifatida ro‘yxatga olinadi. Oddiy foydalanuvchi interfeysi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi (11-rasm).

Dashboard



Mualliflik huquqlari © 2024 Barcha huquqlar himoyalangan. v1.0.0-beta19

11-rasm. Jismoniy shaxslar uchun (oddiy foydalanuvchi) akkaunti interfeysining ko‘rinishi

Farqli, yuridik shaxslar uchun tizimdan foydalanish va tizimga kirishda maxsus login va parollar plagiat.uz tizimi mas’ullari tomonidan beriladi. Yuridik shaxslar ya’ni tashkilotlarga bir nechta login va parollar taqdim etish imkoniyati mavjud. Tomonlarning kelishuvlaridan kelib chiqib, shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Qo’shimcha, yuridik shaxslar ya’ni davlat va nodavlat tashkilotlarning talablaridan kelib chiqib, ularga tizim interfeysi sozlash va tashkilotning o‘ziga moslab berish joriy qilingan.

Yuridik shaxslar ya’ni davlat va nodavlat tashkilotlarning akkaunt interfeysi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi (12-rasm). Tashkilotlar bir vaqtning o‘zida bir qancha hujjatlar paketini plagiatga tekshirishlari mumkin. Oddiy foydalanuvchilarda ham bu imkoniyat mavjud. Ammo, davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan ko‘p sonli hujjatlarni bir vaqtda tekshirishga to‘g‘ri keladi. Shu sababli, bir vaqtning o‘zida, bir plagiat.uz akkauntiga bir nechta login va parollar bilan kirish imkoniyati beriladi. Bu login va parollar bilan tizimga bir vaqtda kirish va foydalanish mumkin. Bunda, har bir login parol egasi tomonidan foydalanilgan tekshirishlar soni qayd etib boriladi. Ularning statistikasi akkaunt interfeysida yoritilgan. Plagiat.uz tizimi tomonidan statistik ma’lumotlar avtomatik bajariladi va doimiy monitoring qilinadi.

The screenshot shows the Plagiatusz dashboard. At the top, there are navigation links: 'Hujjat tekshirish' (document review), 'Hisobingiz: 5 dona', 'ID: 197', 'O'zbekcha', 'Tat ustu admin', and 'Tashkilot admin'. On the left, a sidebar lists 'Kabinet', 'Hujjatlar', 'Milliy baza hujjatlari', 'Foydalanuvchilar', and 'Statistika'. The main area has a 'Dashboard' title. It features four cards: 'HISOBINGIZ' (5 dona, SIZNING ID: 197), 'TASHKILOTGA BIRIKTIRILGAN XODIMLAR SONI' (1 dona), 'TEKHSHIRILGAN HUJJATLAR' (5), and 'OLINGAN SERTIFIKATLAR' (3). Below these is a card for 'O'RTHACHA ORGINALLIK DARAJASI' (92%). At the bottom, a footer note reads: 'Mualliflik huquqlari © 2024 Barcha huquqlar himoyalangan. v1.0.0-beta19'.

12-rasm. Yuridik tashkilotlar uchun akkaunt interfeysining ko‘rinishi

Three screenshots of the Plagiatusz interface are shown side-by-side. Each screenshot has a red header bar with 'PLAGIAT.UZ' and 'PLAGIATGA QARSHI TIZIM'. The first screenshot shows a menu with 'Asosiy saytga qaytish', 'Kabinet', 'Hujjatlar', and 'To'lovlar'. The second screenshot shows the same menu with 'Hujjatlar' highlighted by a red oval. The third screenshot shows the same menu with 'To'lovlar' highlighted by a red oval.

13-rasm.

Plagiatusz tizimida shaxsiy akkaunt interfeysining chap tomon yuqori qismida (13-rasm)da ko‘rsatilgan menu ustunlari joylashgan. “Plagiatusz plagiarism qarshi tizimida” logotipi ustiga bosilganda, sayt o‘zini-o‘zi (ctrl+f5 yoki update) qiladi. “Asosiy saytga qaytish” menyusiga bosganingizda, saytning bosh sahifasi (1-rasm)ga o‘tiladi. Bu ikki holatlarda ham, tizim aktiv holatni saqlab qoladi. Tizimdan to‘liq chiqib ketish buyrug‘i bajarilmagunga qadar, tizim aktiv hisoblanadi. Begona kompyuter vositalaridan foydalanganda, doim tizimdan chiqib ketish tavsiya etiladi. “Kabinet” menyusi bosilganda (11-rasm) doimiy sahifaga qaytiladi. “Hujjatlar” menyusi bosilganda (14-rasm) sahifa ochiladi. “To‘lovlar” menyusiga bosilganda (15-rasm) mening profilim sahifasida “Shaxsiy”, “Akkaunt sozlamalari”, “To‘lovlar” nomli zakladkalar ochiladi. “To‘lovlar” menyusidagi mening profilim sahifasida “Shaxsiy” nomli zakladka ustiga

bosib, shaxsiy ma'lumotlarni zarur bo'lganda tahrirlash va saqlash mumkin. "To'lovlar" menyusidagi mening profilim sahifasida "Akkaunt sozlamalari" nomli zakladka ustiga bosib, telefon raqamingiz va e-mail pochta manzil nomini o'zgartirish va saqlash mumkin. Bu bo'limda to'lovlar tarixi, hozirgi holati va ma'lumotlar aks etgan bo'ladi.

FAYL NOMI	YARATILGAN VAQTI	NATIJA
pdf analiz-rossiyskogo-rynta-fitnes-uslug.pdf	23-Oct 2024 20:18	✓ Tekshirish yakunlandi - 1.52%

14-rasm. Hujjatlar sahifasi

Jismoniy va yuridik shaxslar uchun ham interfeyslar o'xshash. Hujjatlarni plagiatga tekshirishni boshlash uchun oldin to'lov amalga oshiriladi.

#	TO'LOV TIZIMI	TO'LOV MIQDORI	PUL BIRILIGI	HOLAT
80	bonus	120,000	UZS	Bajarilgan
87	bonus	500,000	UZS	Bajarilgan

15-rasm. To'lovlar bo'limi

To'lovlarni amalga oshirish uchun interfeysning yuqori qismida joylashgan menyular qatoridagi "To'lash" buyrug'idan foydalaniladi. "To'lash" buyrug'i ustiga bosing va ushbu sahifa ochiladi (16-rasm). Tekshirishlar soni va sertifikatlar sonini kiriting. Tizim avtomatik narxni belgilaydi va ko'rsatadi. To'lov tizimi bo'limidan pul o'tkazish usulini tanlang. To'lash tugmasini bosing. To'lov amalga oshirilganidan so'ng, yuqoridagi menyuda hisobingiz doimiy aks etib turadi.



Hisobni to'ldirish

To'lov

Narxlar

Hozirda hujjatlar yagona ta'rif bo'yicha har biri uchun **44,000** so'mdan tekshiriladi va bitta sertifikat uchun **5,000** so'mdan yaratilinadi (Sertifikat yaratish majburiy emas). Nechta hujjat tekshirmoqchiligidagi belgilang, hisobingizni to'ldiring va o'z hujjatlaringizni tekshiring.

Hujjatlar soni	Summa	To'lov tizimi
1	dona 44000 so'm	<input type="radio"/> Payme
Sertifikatlar soni	Summa	<input type="radio"/> CLICK
1	dona 5000 so'm	
To'lov uchun jami		Summa 49000 so'm

Jami: 49,000 so'm

To'lash

16-rasm. Hisobni to'ldirish

To'lov amalga oshirilganidan so'ng, hujjatlaringizni plagiarismga tekshirish uchun (17-rasm)da ko'rsatilgan "Hujjat tekshirish" menyusini tanlang. "Hujjat tekshirish" menyusi ustiga sichqoncha bilan bir marta bosing. Ekran markazida joylashgan "Hujjatni tanlang" yozuvi ustiga bosing.



Hujjat tekshirish

Hujjatni yuklash

Hujjatni shu joyga tortib qoshlang yoki [hujjatni tanlang](#)

Hujjat nomi *


Hujjat turi *

Hujjat tavsifi

17-rasm. Hujjat tekshirish

Ekran markazida joylashgan "Hujjatni tanlang" yozuvi (17-rasm)da qizil chiziq bilan aylana olingan holda ko'rsatilgan. Ushbu "Hujjatni tanlang" yozuvi ustiga

bosilganda, ekranda ushbu ko‘rinishda yangi oyna ochiladi (18-rasm). Hujjat joylashgan joyni toping va hujjatni tanlang.



18-rasm. Hujjat joylashgan joyni topish va tanlash

Tanlangan hujjat plagiatusz tizimiga yuklanadi (19-rasm). Hujjat noto‘g‘ri yuklangan bo‘lsa, “Faylni olib tashlash” yozuvi ustiga bosing. Hujjat tizimdan olib tashlanadi. Agar ishni davom ettirmoqchi bo‘lsangiz, pastki qismida joylashgan “Hujjat nomi”, “Hujjat turi”, “Hujjat tavsifi” bo‘limlarini to‘ldiring. Ushbu bo‘limlarni to‘ldirmasdan ham hujjatni tekshirish mumkin. Hujjatni tekshirish uchun pastki o‘ng tomonda joylashgan “Tekshirish” tugmasini bosing (20-rasm).

Hujjat tekshirish

Hujjatni yuklash

41.2 KB
✓ Faylni olib tashlash

Hujjat nomi * 2.docx

Hujjat turi * Hujjat turini tanlang

Hujjat tavsifi Hujjat tavsifi

19-rasm. Hujjatni yuklash

41.2 KB
2.docx
Faylni olib tashlash

Hujjat nomi *
Hujjat turi *
Hujjat tavsifi

Tekshirish

20-rasm. Hujjatni tekshirish

Hujjatlarni tekshirish vaqtি ko‘p sonli hujjatlar uchun 5-10 minut. Plagiatga tekshirilgan hujjatlar menyular ustuni joylashgan “Hujjatlar” bo‘limida ketma-ket joylashib boradi (21-rasm).

PLAGIAT.UZ
PLAGIATGA QARSHI TIZIM

Asosiy saytga qaytish
Kabinet
Hujjatlar
To‘lovlar

Hujjatlar

Filtr

Qidiruv

FAYL NOMI	YARATILGAN VAQTI	NATIJA
pdf analiz-rossiyskogo-rynska-fintnes-uslug.pdf	23-Oct 2024 20:18	✓ Tekshirish yakunlandi - 1.52% Interaktiv ko‘rish ... ✓
pdf 1289-Article Text-3038-1-10-20231209.pdf	23-Oct 2024 20:17	✓ Tekshirish yakunlandi - 3.18% Interaktiv ko‘rish ... ✓
pdf 358-360+Qoraqalpoq+Musiqa+Uslubi+O‘ziga+Yarasha+Xilma-Xil+Va+Rang-Barangligi.pdf	23-Oct 2024 20:15	✓ Tekshirish yakunlandi - 0.81% Interaktiv ko‘rish ... ✓

21-rasm. Tekshirilgan hujjatlar

Tekshirilgan hujjatlar bo‘limidan har bir hujjat bo‘yicha plagiarismga tekshirilgani to‘g‘risida ma’lumotlarni yuklab olish mumkin. O‘ng tomonda joylashgan “Interaktiv ko‘rish” tugmasidan keyin “...” belgisi mavjud. Ushbu “...” tugma ustiga bosganingizda ekranda tekshiruv natijalarini ko‘rsatadigan to‘liq hisobot, tahliliy hisobot va belgilangan namunadagi xulosa (SERTIFIKAT)ni taqdim etadi. Buning uchun to‘liq hisobot, tahliliy

hisobot va belgilangan namunadagi xulosa (SERTIFIKAT)lardan birini tanlash kifoya (22-rasm).

The screenshot shows a digital platform for managing uploaded documents. At the top right, there are status indicators: 'Oxirgi yangilanish: 23:19:5' and 'Keyingi yangilanish: 0s'. Below the header, there's a search bar with placeholder 'Qidiruv' and a close button 'X'. A blue 'Filtr' button is located on the left. The main area displays a table with columns: 'FAYL NOMI' (File Name), 'YARATILGAN VAQTI' (Created Time), and 'NATIJA' (Result). There are three rows of data:

FAYL NOMI	YARATILGAN VAQTI	NATIJA
pdf Avtoreferat DSc 04.07.2024.pdf	27-Oct 2024 20:53	<button>Interaktiv ko'rish</button> ... <ul style="list-style-type: none">To'liq hisobotni yuklashTahliliy hisobotni yuklashSertifikatni yuklash
docx Disser_Oybek.docx	27-Oct 2024 20:31	<button>Interaktiv ko'rish</button>
docx Dis_F.J..docx		

22-rasm. To‘liq hisobot, Tahliliy hisobot va SERTIFIKATni yuklab olish

To‘liq hisobot, tahliliy hisobot yoki sertifikatni yuklash buyruqlari tanlanganda, kerakli hujjat yangi web sahifada pdf formati ko‘rinishida ochiladi. Saqlash bo‘limiga o‘tib yuklab olinadi. Ushbu hisobotlarni istalgan vaqtda tizimga kirib yuklab olish mumkin. Hujjatlarni yuklab olishda cheklovlar yo‘q. Ammo, har bir tekshirish uchun alohida to‘lov qilingandan keyingina tizim ishni davom ettiradi.

Plagiat.uz tizimi ko‘chirilgan matnlarning qaysi manbalardan olinganini aniqlash va ularni aniq ifodalash imkoniyatiga ega (23-rasm).

The screenshot shows a plagiarism detection report from Plagiat.uz. At the top, there's a chart comparing similarity percentages:

O'zlashtirishlar	13.89%
Iqtibos	7.24%
Originallik	78.87%

Below the chart, a red box highlights the URL: <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aQ8038fO1.file>. The report details the detected work:

Tekshirish	Manba
Sahifa 1	Sahifa 1
57 E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	... 47 E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works ...

At the bottom, there's another comparison table:

Tekshirish	Manba
Sahifa 3	Sahifa 3
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.ndki.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lif portalida (www.zyonet.uz) joylashtirilgan.	... Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lif portalida (www.zyonet.uz) joylashtirilgan ...

23-rasm.

Tizimda matnlarning mazmuni o‘zgarmasdan, so‘z va iboralar almashgan holatlar (parafrazalar)ni aniqlash funksiyasi mavjud (24-rasm).

Sahifa 31	Sahifa 35
Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.	... Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации ...
409 2023 https://drive.google.com/file/d/1xrot7USd8gYJq-y8sAF2JHAcNywcDD90/view	
Tekshirish Sahifa 31 Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.	Manba Sahifa 37 ... Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации ...
410 http://library.navoiy-uni.uz/files/ingliz_va_ozbek_tillarida.olamning_frazeologik_manzarasida_gender_kontseptlarining_shakllanishi.pdf	
Tekshirish Sahifa 31 Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.	Manba Sahifa 33 ... Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации2 ...
411 Пространственные особенности формирования системы внеуличного пассажирского транспорта Санкт-Петербургской агломерации 2020, Атаев Пётр Геннадьевич https://vak.minobrnauki.gov.ru/advert/100048445	
Tekshirish Sahifa 31	Manba Sahifa 7

24-rasm. Parafrazalash yo‘li bilan o‘zlashtirilgan matnlar

Plagiat.uz tizimi sun’iy intellekt - AI texnologiyalari yordamida generatsiya qilingan matnlarni aniqlash xususiyatiga ega (25-rasm).

Data Analytics Tools

Purpose: Analyze data to extract meaningful insights.

Examples:

Apache Spark: A powerful engine for big data processing.24

Machine Learning Algorithms: Used for predictive analytics and pattern recognition(Ambrus, 2023).

Material properties such as yield stress and fracture toughness also play a role in determining the cutting behavior and chip formation(Williams & Patel, 2016).

Cutting Parameters

Key cutting parameters include cutting speed, feed rate, and depth of cut, which significantly affect surface roughness and machining time(Tamrakar & Vishwakarma, 2017).

Optimization of these parameters can lead to improved tool life and reduced environmental impact, as evidenced by studies focusing on energy efficiency and noise reduction(Zhang et al., 2018).

25-rasm. Sun'iy intellekt - AI texnologiyalari yordamida generatsiya qilingan matnlar

Plagiat.uz xalqaro ilmiy nashriyotlar, kutubxonalar, va milliy ilmiy nashrlar bazasiga integratsiya qilingan va muntazam integratsiya qilib borish uchun mo'ljallangan algoritm asosida ishlaydi (26-rasm).



PLAGIAT.UZ

Kengaytirilgan hisobot



Yaratilgan: 27/10/2024 18:53:48

Yil: 2024

Sahifalar: 63

Qidiruv modullari: Internet 2.0, IEEE, Elektron kutubxona tizimlari to'plami, Rossiya davlat kutubxonasi dissertatsiyalari, Rossiya davlat kutubxonasining tezislari, Ilmiy maqolalar to'plami, Vikipediya:Ru, Vikipediya:En, Huquqiy hujjatlar to'plami, Rossiya Federatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari, Rossiya Federatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasining tezislari, KiberLeninka ilmiy elektron kutubxonasi, Ilmiy maqolalar 2.0, Rossiya Federatsiyasi sanoat mulki federal instituti, Birlashgan universitetlar to'plami, Local user collection "InsoftLab", O'zbekiston hududiy to'plami, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Ensiklopediyalar to'plami

Hujjat raqami: 23949

Yuklab olishni boshlash: 27/10/2024 18:53:48

26-rasm. xalqaro ilmiy nashriyotlar, kutubxonalar, va milliy ilmiy nashrlar bazalari



27-rasm. Sertifikat namunasi

Bog'lanish uchun ma'lumotlar

Telegram:

@plagiat_uz_1

@plagiat_uz_2

Manzil:

Xorazm viloyati, IT-Park,

Tinchlik ko'chasi

Telefonlar:

+998 93 993-77-55

+998 94 437-77-55

e-mail:

info@plagiat.uz

support@plagiat.uz